

O‘ZBEK TILINI ISTANBUL UNIVERSITETIDA O‘QITISH TAJRIBASIDAN

Shaxlo Shukurlaevna Yuldasheva

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, pedagogika fanlari nomzodi
E-pochta: shahlondpi@gmail.com.
ORCID ID: 0000-0001-9797-8635*

Raile Kashg‘arli

*Istanbul universiteti Adabiyot fakulteti
Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlari bo‘limi
dotsenti, filologiya fanlari doktori, Turkiya
Respublikasi*

O‘zbek tili dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida o‘rganilmoqda. Jumladan, o‘zbek tilini Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, AQSH va ayrim Yevropa ittifoqi davlatlari universitetlarida o‘qitish bo‘yicha muayyan tajribalar to‘plangan. Xorij universitetlarida o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida o‘zbek adabiyoti ham o‘rgatilmoqda. Mamlakatimizning xorijdagi elchixonalari va diplomatik vakolatxonalari qoshida “O‘zbek tilining do‘stlari” klublari faoliyat yuritmoqda. Tojikiston va Qozog‘iston Respublikalarida esa o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlanmoqda. Turkiya Respublikasida ham o‘zbek tili chet tili sifatida emas, balki qardosh til sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Bu ishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida¹ farmonlari tufayli yuqori bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek tili Turkiya (20 ga yaqin), Amerika (10 dan ortiq), Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, Xitoy, Koreya, Germaniya, Polsha, Eron Islom Respublikasi, Qozog‘iston Respublikasi universitetlarida tanlov fan (ayrimlarida majburiy fan) sifatida o‘qitilayotganligi, ular bilan mamlakatimiz OTMLarining ilmiy hamkorligi yo‘lga qo‘yilganligi, shuningdek, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tomonidan xorijlik fuqarolar uchun o‘quv kurslari tashkil etilganligi ishlar miqyosi va ko‘lamining kengayganligi haqida tasavvur beradi. Keyingi 30 yilda faqatgina Turkiya Respublikasidagi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 20-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini oshirish haqida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020-yil, 20-oktabr [https:// www.xabar.uz.siyosat.prezident-ozbek](https://www.xabar.uz.siyosat.prezident-ozbek).

universitetlarda 24 ta doktorlik dissertatsiyasi, 173 ta magistrlik dissertatsiyasi himoya qilingan bo‘lsa², so‘nggi yillarda o‘zbek tilini ilmiy tadqiq qilishga bo‘lgan qiziqish dunyoning boshqa universitetlarida ham ortib bormoqda. “O‘zbekcha va xitoycha maqollarning lingvistik tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyaning o‘zbek tilida himoya qilinganligi³ fikrimiz dalilidir. Xorij olimlari tomonidan Yaponiyada⁴, Xitoy⁵, Koreya, Germaniya, Polsha universitetlarida⁶ darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Janubiy Koreyaning Hankuk universiteti professorlari Aziza Mashrabbekova hamda Leye Jiyeon filologiya fanlari doktori, professor Yorqinjon Odilov bilan hamkorlikda “O‘zbek tili. Standart darslik” nomli qo‘llanmasini nashr qildirishgan⁷.

Professor Jo‘liboy Eltazarov o‘zbek tilining yurtimizning qaysi mamlakatlar bilan yaqin siyosiy, iqtisodiy diplomatik va strategik munosabatlari bo‘lsa, o‘sha davlatlarda o‘rganilayotganligini⁸ ta’kidlaydi. Darhaqiqat, Turkiya universitetlarida o‘zbek tilining o‘qitilishi Turkiya Respublikasi va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy, siyosiy, iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishi, ta’lim sohasidagi hamkorliklar, xususan, akademik va talabalar almashuv dasturlarining kengayganligida chambarchas bog‘lanadi.

Istanbul universitetida “Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlari” kafedrasida 1995-yilda ochilgan bo‘lsa ham 2011-yildan e’tiboran talabalar qabul qilingan. Bo‘limda o‘quv jarayoni 2011-yildan 2021-yilgacha faqat bakalavr dasturi bo‘yicha, 2021-yildan buyon bakalavr va magistratura dasturi bo‘yicha amalga oshirilgan. Bo‘limda zamonaviy turkiy tillar qatorida o‘zbek tili ham o‘rgatilmoqda⁹. O‘zbek tilidan 2011-2014-yillar davomida fan doktori, dotsent Ersin Teres va o‘zbek adabiyotidan yordamchi dotsent Aysha Yilmazlar dars berishgan. Hozirgi kunda fan doktori, dotsent Reila Kashg‘arli¹⁰ (2014-yildan; magistrlik dissertatsiyasi mavzusi: Çin Sınırları İçinde Yeni Uygurca Üzerinde Çalışma Yapanlar ve Onların Eserlerinden Örnekler; doktorlik dissertatsiyasi mavzusi: Çağdaş Uygur Şairlerinden

² Meryem Er. Özbek türkçesi üzerine Türkiye’de yayımlanan çalışmaların bir bibliyografya denemesi. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 6(2), s. 539-564.

³ <https://oz.sputniknews.uz/20230707/xitoy-olim-ozbekiston-6-yil-oqish-ozbekcha-xitoycha-lugat-36619017.html>

⁴ <https://www.qalampir.uz/news/yaponiyada-uzbek-tili-buyicha-darslik-nashr-etildi-95618>

⁵ <https://tsuull.uz/uz/content/xitoy-xalq-respublikasida-ozbek-tilining-oqitilishi>

⁶ https://uza.uz/uz/posts/ozbek-tilining-xorizhdahda-oqitilishi-boyicha-anzhuman_271507

⁷ https://uza.uz/uz/posts/ozbek-tili-darsligi-koreyada-oqitiladi_375983

⁸ <http://uchildiz.uz/американинг-8-университетида-ўзбек-ти/>

⁹ Kasgarli, R. (2020). Turkiya oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili ta’limi: muammo va takliflar || O‘zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent.

¹⁰ <https://avesis.istanbul.edu.tr/revila.kasgarli/>

Memtili Tevfik Efendi'nin Şiirleri Üzerinde Dil İncelemesi) va fan doktori Ma'mura Mamatkulova¹¹ (2019-yildan buyon; magistrlik dissertatsiyasi mavzusi: Standart Özbek Türkçesi ve Ağızlarında Enklitikler Üzerine Örnekli Bir İnceleme; doktorlik dissertatsiyasi mavzusi: “Çağatayca Nasihatü'l-Mülük Tercümesi”)lar o'zbek tili va o'zbek adabiyotidan dars berishmoqda. Bakalavr dasturida o'zbek va uyg'ur tillari qiyoslab o'rganiladigan “Özbek Türkçesi I”, “Özbek Türkçesi II”, “Özbek Türkçesi Yazılı ve Sözlü Anlatım-I”, “Özbek Türkçesi Yazılı ve Sözlü Anlatım-II”, “Güney-Doğu Türk Lehçeleri – I (Ses Bilgisi), “GüneyDoğu Türk Lehçeleri – II”, “Güney-Doğu Türk Lehçeleri Diyalektolojisi”, “Güney-Doğu Türk Lehçeleri Edebiyatları” fanlari, 2021-yildan ochilgan magistratura dasturida 1-semestrda o'zbek adabiy tili darslari (o'zbekcha adabiy asarlarni oqish va tushinish darslari), o'zbek xalq og'zaki ijodi 2-semestrda o'qitiladi va mazkur fanlar bo'yicha ham o'quv dasturlari ishlab chiqilgan. O'zbek tilshunosligidagi yangi yo'nalishlar va olib borilayotgan yangi tadqiqotlar o'zbek tilining o'qitilishi, fanlarni o'qitishning maqsad, vazifalari va o'quv fanlarining mazmunini takomillashtirishni taqozo qiladi. Zamonaviy turkiy tillar qatorida o'rganilayotgan o'zbek tilini o'qitish metodikasidagi yangilanishlar, yangi yondashuvlar o'quv adabiyotlar: dastur, darslik, qo'llanmalarni yangilash masalasiga uzviy bog'lanadi.

O'rganishlar, ya'ni suhbatlar va so'rovnomalar o'zbek tilini o'qitishning asosiy muammolarini aniqlash imkoniyatini berdi. Asosiy qiyinchiliklar bosqichlarning turli darajadagi va yoshdagi talabalardan iborat bo'layotganligidan yuzaga kelmoqda. Kattalarga o'zbek tilini o'qitish bo'yicha androgogik modelni yaratish dolzarb vazifaligicha qolayotganini aytib o'tish o'rinlidir. Shu bilan birga o'qituvchilar sifatli darslik va o'quv qo'llanmalarning yetishmasligini ham muammo sifatida ko'rsatishdi. Aksariyat O'zbekistondan keltirilgan adabiyotlardan foydalanilishini ta'kidlagan holda bu nashrlardagi materiallar bilan talabalar ehtiyojlari o'rtasida tafovut katta bo'layotganini ko'rsatishgan. Xorijiy tillarni kattalarga o'qitish istiqbolli yo'nalish hisoblangani holda hozirgi vaqtda o'qituvchilarni bu metodikaning shu toifadagi talaba yoki tinglovchilar bilan ishlash texnologiyalari va usullari bilan tanishtirishni taqozo qilmoqda.

Aytish mumkinki, o'zbek tili ta'limida o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish hamda chet tili sifatida o'qitish metodlari, tamoyillari va texnologiyalari integratsiyalangan lingodidaktik vositalarga murojaat qilinmoqda. Ularning qanday miqdorda ekanligi talabalarining ona tilini bilish darajasi, o'zbek tiliga qardosh yoki qardosh bo'lmagan til vakili ekanligi, til o'rganishga bo'lgan qobiliyati, zehni va shu

¹¹ <https://avesis.istanbul.edu.tr/mamura.mamatkulova>

kabi ko‘plab omillarga ko‘ra farqlanadi. Binobarin, zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo‘limida dunyoning turli qit‘alaridan kelgan talabalar tahsil olishmoqda.

O‘zbek tilidagi nutq, mavzuni uzoq tushuntirishlar, murakkab tahlillar talabalarning idrok qilishini qiyinlashtiradi, ularni charchatadi. Shuning uchun o‘qituvchilar mashg‘ulotlarning aksariyat qismida o‘zbek tiliga xos lisoniy hodisani turk tiliga qiyoslab turk tilida tashkil qilishadi. Bu holatda turk tilini ona tili sifatida o‘qitish usullari va texnologiyalariga ustuvorlik beriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, talabalarning aksariyati universitetga kirguncha muayyan bir xorijiy tilni, xususan, ingliz, nemis yoki fransuz tilini chet tili sifatida o‘rganishgan, universitetdagi tahsil davomida ham chet tillarini majburiy tarzda, shuningdek, qo‘shimcha pullik kurslarda o‘rganishda davom qilishadi. Bu holat chet tilini o‘rganishdagi ko‘nikma va malakalarini o‘zbek tilini o‘rganish jarayoniga samarali tatbiq qilish imkoniyatini yaratadi.

Istanbul universitetida Mevlana xalqaro dasturi muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda. O‘zbek tilidan dars beruvchi o‘qituvchilarga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Oliy ta’lim qo‘mitasi (YÖK) yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash uchun yangi tizimlarni ham yo‘lga qo‘ymoqda. O‘zbekiston OTMlari bilan imzolangan hamkorlik memorandumlariga asosan offlayn va onlayn tarzda O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni, seminarlar tashkil qilish kutilgan samarani bermoqda (P.f.n., professor Sh.Sh.Yuldasheva, Nukus DPI, 2021-yil) bu mashg‘ulotlar natijasida o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha nazariy bilimlar berish bilan birgalikda, talabalar O‘zbekiston tarixi, madaniy merosi, go‘zal maskanlari, tabiati, xalqi, ularning turmush tarzi, muomala madaniyati bilan tanishtiriladi. Chunonchi talabalar til egasi bilan muloqotda bo‘ladi, dialog va poliloglarda qatnashadi, o‘z fikr-mulohazalarini o‘zbek tilida bayon qilish ko‘nikma va malakalari shakllana boradi.

O‘zbek tilini o‘rganish bilan barobar talabalar O‘zbekistonda joylashgan tarixiy maskanlar, me’morchilik obidalari, zamonaviy shaharsozlik, hayotning turli jabhalarida amalga oshirilayotgan innovatsiyalar, iqtisodiyot, ishlab chiqarish, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar, O‘zbekiston yoshlari va ularning qiziqishlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar. Xususan, Istanbul universitetida o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida “Özbekçe Öğreniyoruz”¹², “Özbek Türkçesi Gramer-Metin-Sözlük”¹³, “Özbek Türkçesi”¹⁴ kabi darsliklar bilan bir qatorda “O‘zbek tili”¹⁵, “Aynı Bağın

¹² Eltazarov, J., Koç, K., Yokubov, İ. (2021). Özbekçe Öğreniyoruz. – İstanbul: Kesit Yayınları

¹³ Gültekin, M., Koraş, H., Kurbanova, M. (2019). Özbek Türkçesi GramerMetin-Sözlük. – İstanbul: Kesit Yayınları

¹⁴ Yıldırım, H. (2020). Özbek Türkçesi (Dil Bilgisi-Alıştırmalar-Konuşma-Metinler). – Ankara: Delta Yayınları.

Bülbülleri”¹⁶, “Aynı Bağın Gülleri”¹⁷, “O‘zbek tili. B2”¹⁸ darsliklari, «O‘zbek tilidan interaktiv diktant» EHM uchun dasturi”¹⁹, “Savodxon” dasturi (mobil ilova)²⁰; “Imlo qoidalarini o‘rganamiz” elektron o‘quv nashri, <https://savodliel.uz/> sayti, o‘zbek tilini o‘qitish uchun ishlab chiqilgan videodarslardan (<https://youtube.com/channel/UCJvNHn6eX3bAWbVSN67Vjtg>) foydalanish talabalarning lingomadaniy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatimizning jozibadorligi, jahon hamjamiyatidagi obro‘si dunyoning turli burchaklarida yashayotgan millat va elat vakillari tomonidan o‘zbek tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu esa o‘zbek tilini xorijiy til, ikkinchi til, uchinchi va h.k til sifatida o‘qitish bo‘yicha tadqiqotlar miqyosini kengaytirishni hamda uni amaliy o‘rganish metod va usullarini, texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 20-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei oshirish haqida”gi Farmoni.// O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2020-yil, 20-oktabr [https:// www.xabar.uz.siyosat.prezident-ozbek](https://www.xabar.uz.siyosat.prezident-ozbek).
2. Eltazarov, J., Koç, K., Yokubov, İ. (2021). Özbekçe Öğreniyoruz. – İstanbul: Kesit Yayınları
3. Gültekin, M., Koraş, H., Kurbanova, M. (2019). Özbek Türkçesi GramerMetin-Sözlük. – İstanbul: Kesit Yayınları
4. Meryem Er. Özbek türkçesi üzerine Türkiye’de yayımlanan çalışmaların bir bibliyografya denemesi. Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergisi (TÜRKLAD), 6(2), s. 539-564.
5. Yıldırım, H. (2020). Özbek Türkçesi (Dil Bilgisi-Alıştırmalar-Konuşma Metinler). – Ankara: Delta Yayınları.
6. Yelok, Veli Savaş, (2019). Aynı Bağın Bülbülleri-Özbek Edebiyatından Seçme Hikayeler 1909-1980, bs.2 – Ankara Sonçağ Akademi Yayınları.
7. Yelok, Veli Savaş, (2019). Aynı Bağın Gülleri-Özbek Edebiyatından Seçme Hikayeler 1980-2014, bs.2 – Ankara Sonçağ Akademi Yayınları.

¹⁵ Yuldasheva Sh. O‘zbek tili. Kechki va sirtqi bo‘lim uchun darslik. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo. 2021.

¹⁶ Yelok, Veli Savaş, Aynı Bağın Bülbülleri-Özbek Edebiyatından Seçme Hikayeler 1909-1980, bs.2 – Ankara Sonçağ Akademi Yayınları

¹⁷ Yelok, Veli Savaş, Aynı Bağın Gülleri-Özbek Edebiyatından Seçme Hikayeler 1980-2014, bs.2 – Ankara Sonçağ Akademi Yayınları

¹⁸ Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova G. O‘zbek tili. B2. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo. 2020.

¹⁹ Yuldasheva Sh. va b. O‘zbek tilidan interaktiv diktant. – Nukus, 2019.

²⁰ Yuldasheva Sh., Yusupova G. Savodxon” dasturi. – Nukus, 2020.

8. Kasgarli, R. (2020). Kasgarli, R. (2020). Turkiya oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili ta’limi: muammo va takliflar || O‘zbek tilini ikkinchi til va xorijiy til sifatida o‘qitish masalalari: muammo, yechim, istiqbollar mavzusidagi respublika onlayn ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent.
9. Yuldasheva Sh. O‘zbek tili. Kechki va sirtqi bo‘lim uchun darslik. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo. 2021.
10. Yuldasheva Sh., Kabulova D., Yusupova G. O‘zbek tili. B2. – Toshkent: Innovatsiya-ziyo. 2020.
11. Yuldasheva Sh. va b. O‘zbek tilidan interaktiv diktant. – Nukus, 2019.
12. Yuldasheva Sh., Yusupova G. Savodxon” dasturi. – Nukus, 2020.
13. <https://oz.sputniknews.uz/20230707/xitoy-olim-ozbekiston-6-yil-oqish-ozbekcha-xitoycha-lugat-36619017.html>
14. <https://www.qalampir.uz/news/yaponiyada-uzbek-tili-buyicha-darslik-nashr-etildi-95618>
15. <https://tsuull.uz/uz/content/xitoy-xalq-respublikasida-ozbek-tilining-oqitilishi>
16. https://uza.uz/uz/posts/ozbek-tilining-xorizhda-oqitilishi-boyicha-anzhuman_271507
17. https://uza.uz/uz/posts/ozbek-tili-darsligi-koreyada-oqitiladi_375983
18. <http://uchildiz.uz/американинг-8-университетида-ўзбек-ти/>
19. <https://avesis.istanbul.edu.tr/reyila.kasgarli/>
20. <https://avesis.istanbul.edu.tr/mamura.mamatkulova>